

ITALYAN TILIDAGI FRAZEOLOGIZMLAR VA ULARNING O'ZBEK TILIGA TARJIMASIDA O'XSHASHLIKLAR VA O'ZGARISHLAR.

Naimova Parvina Rustamovna

Sam SAMDCHTI o'qituvchisi

Muloqot bu shaxslarning asosiy xususiyatlaridan biri sanaladi. Ya'ni muloqot qilish orqali fikr almashish, yangi g'oyalar va ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Shu bilan birgalikda dunyoqarashimizning kengayishiga, fikrlash darajamizni oshishiga ko'mak beradi. Insonlar hayotini muloqotsiz tasavvur eta olmaydi va muloqotsiz dunyo bu onasiz bola, kalitsiz qulf kabidir. Demak, biz bolani onasiz tasavvur qilolmaydiganimizdek, yoki kalitsiz qulfni foydasizligini bilganimizdek, insonlar uchun muloqot ham juda muhim va insonning asl insonligini muloqotsiz tasavvur qilib bo'lmadi.

Hozirda muloqot jarayonida, nafaqat og'zaki muloqotda, balki yozma nutqda ham frazeologik birliklar juda ham ko'p ishlatilayotgan bo'lib, muloqotda o'rni juda ham muhim hisoblanadi. Frazeologiya bu tilshunoslikning bo'limlaridan biri bo'lib, u tilde kamida ikkita

O'zbek tilida ham frazeologizmlar ko'p, lekin ularning ishlatilishi konservativroq va kontekstga bog'liq. Ayniqsa, og'zaki xalq og'zaki ijodida, maqol va matallarda, kinolarda, she'riyatda ko'p ishlatiladi. Ammo kundalik muloqotda italyanlarnikiga qaraganda kamroq va ehtiyotkorroq qo'llaniladi. Bunga quyidagilarni sabab qilib olsak bo'ladi.

- O'zbek madaniyatida to'g'ridan-to'g'ri, rasmiy, muloyim so'zlash qadrlanadi.

- Ba'zi obrazli iboralar yoshlar orasida tushunarsiz yoki eskirgan deb hisoblanadi.

- Biroq, she'riyat, adabiyot va xalq og'zaki ijodida frazeologizmlar juda muhim o'rin tutadi.

Italyan tili frazeologiyaga boy tillardan biri hisoblanadi. Italyanlar kundalik nutqda, siyosiy nutqlarda, ommaviy axborot vositalarida, adabiyotda, kino va teatrda frazeologizmlarni juda faol ishlatadi. Bu tilning obrazlilik va musiqiyligiga bog'liq. Italyan tilida frazeologiyani ko'p qo'llanilishidagi asosiy sabablar bular quyidagilardir:

- Italyan tili madaniyatida obrazli, ifodali so'zlash qadrlanadi.

- Metafora, ironik iboralar, kinoyalar – bu italyan tilining ajralmas qismi.

- Frazeologizmlar yordamida hissiylik, ta'sirchanlik, hazil va tanqid ifodalanadi.



Bunga misol qilib quyidagi soʻzlarni keltirib oʻtsak boʻladi: Kundalik suhbatda odam bemalol shunday deyishi mumkin: "Non ho tempo, sono con l'acqua alla gola!" (Vaqtim yoʻq, tomogʻimgacha suvga botib turibman!) Maʼnosi: Ishim boshimdan oshgan, vaqtim juda kam. Bizda oʻzbek tilida bundayin frazeologik ibora mavjud emas, biz bu uchun quyidagi unga mos ekvivalent iborani qoʻllasak boʻladi.

- Ishim boshimdan oshgan
- Boshimni qashishga ham vaqtim yoʻq.

Demak, yuqoridagi misoldan koʻrishimiz mumkinki, tarjimada soʻzlar bir-biridan farqlanadi. Shu bilan bir qatorda oʻxshash holatlari ham mavjuddir. Demak ikki holat boʻyicha frazeologik iboralarni italyan va oʻzbek tillari boʻyicha koʻrib, ularni toʻgʻridan- toʻgʻri tarjima va manoga xos ekvivalent orqali tarjimalarini koʻramiz. Frazeologik birliklarni tarjima qilish usullari:

- Soʻzma-soʻz tarjima
- Maʼnodosh birlik orqali tarjima
- Ekvivalent (oʻxshash) frazeologizm bilan tarjima
- Erkin tarjima yoki izohli tarjima

Italyan va oʻzbek tillarida frazeologizmlarning oʻxshashliklari. Mazmuni yoki shakli jihatdan oʻxshash frazeologik birliklar:

- Avere le mani bucate – qoʻli ochiq boʻlish (pulni tejamaslik).
- Cadere dalle nuvole – osmondan tushgandek boʻlish (hayron qolish).
- Essere al settimo cielo - juda xursand boʻlish, quvonchdan uchib ketmoq (Yettinchi osmonda yurmoq).

- Lavarsene le mani - Oʻzini aybsiz, befarq qilib koʻrsatmoq (Qoʻl yuvib, chetga chiqmoq).

- Essere come cane e gatto - Doim janjal qilish, kelishmovchilikda yashash (Mushuk-bitchaqdek yashamoq).

Ushbu misollar nazdida koʻrishimiz mumkinki, italyan va oʻzbek tillari frazeologik birliklari orasida oʻxshashliklar ham mavjud. Italyan tilidagi iboralar uchun oʻzbek tilidagi iboralardan mosini topsa boʻladi, ammo bu holat doimo ham toʻgʻri kelavermaydi. Unga mos ekvivalent topsa boʻladi, ammo toʻgʻridan- toʻgʻri maʼnosi butunlay farq qiladi. Italyan tilidagi frazeologizmlarning oʻzbek tiliga tarjimasidagi oʻzgarishlari bor frazeologizmlar roʻyxatini koʻrib chiqamiz.

- In bocca al lupo! – toʻgʻridan - toʻgʻri tarjimada – “boʻrining ogʻziga tush” yaʼni omad tilash degan maʼnoni bildirib, unga mos qilib – “omad yor boʻlsin” degan iborani olsak boʻladi.

- Fare orecchie da mercante – toʻgʻridan - toʻgʻri maʼnosi bu “sotuvchini qulogʻini tutgandek qilish”, boʻlib, asl maʼnosi esa oʻzini koʻrmaslikka va



eshitmaslikka olish bo'lib, o'zbek tilidagi “ko'zi ko'r, qulog'i kar” degan iboraga mos keladi.

- Sudare sette camicie - to'g'ridan to'g'ri tarjimasi “yetti ko'ylak terlash” degan ma'noni ifodalaydi. Asl ma'nosi esa bu juda ko'p mehnat qilmoq bo'lib, bunga ekvivalent qilib, “jonini jabborga bermoq” degan variantni tanlasak bo'ladi.

- Piangere sul latte versato - to'g'ridan - to'g'ri tarjimada “to'kilgan sut ustida yig'lamoq” degan ma'noni anglatadi. Asl mazmuni esa bu orqaga qaytmaydigan holat haqida afsuslanish bo'lib, unga mos qilib, “O'tgan ishga ho'ngrab yig'lamoq”. Yuqoridagi misollar nazdida ayta olamizki, frazeologik iboralarning to'g'ridan- to'g'ri tarjimasini topishimiz, yoki shunga mos ekvivalent topishimiz mumkin ekan. Xulosa qismida shuni aytib o'tsak bo'ladiki, Italianlar frazeologik birliklarni hayotining ajralmas qismi sifatida ishlatadi – bu ularning madaniyatida obrazlilik, jonlilik va ekspressivlikka bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqadi. O'zbeklar esa ehtiyotkorroq: frazeologizmlar ko'proq adabiy, folkloriy, rasmiy uslubda qo'llaniladi, lekin kundalik nutqda ularni ishlatish nisbatan kamroq va avlodlar orasida farq bor. Ammo ikki tilda ham bu juda ham muhim bo'lib, tilning ajralmas bo'lagi sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulhayev, A. (2008). Tilshunoslikka kirish. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Sodikov, A. (2015). Frazeologik birliklar va ularning tarjimasi. Toshkent: O'zMU nashriyoti.
3. De Mauro, T. (2003). Il dizionario della lingua italiana. Torino: Paravia.
4. Palazzi, F. (2002). Modi di dire italiani: significato e origine. Firenze: Giunti Editore.

